

MAHALLA OBODLIGI YURTNING RAVNAQI!



MAHALLA OBODLIGI YURTNING RAVNAQI!

"Obod qishloq" va "Obod mahalla" dasturi ijrosini amalga oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5048-sonli Qarori ijrosini ta'minlash maqsadida, "Guliston" mahallasining ichki ko'chalarini obodonlashtirish ishlari olib borilmoqda. Jumladan imkoniyati cheklangan xonadonlarning tashqi devorlari oqlab berildi. Ushbu ishlar O'zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vaziri o'rinbosari B.Parpiev, shahar hokimi va sektor rahbarlari, shuningdek tegishli korxonalar va tashkilot rahbarlari, mahalla fuqarolar yig'ini xodimlari hamda keng jamoatchilik vakillari bilan birgalikda tashkil qilinib, nokonuniy kurilgan yaroksiz xolatga kelib kolgan binolar buzilib tartibga keltirilmoqda.

Bundan tashqari ko'chalarda o'rnatilgan simyog'ochlarga zamonaviy chiroqlar o'rnatilib ko'chalarni chetlariga latoklar joylashtirilmoqda. Obod mahalla dasturining ijrosi yuzasidan obodonlashtirish ishlari mahallada jadallik bilan davom etmokda.